

**TA'LIM TIZIMINI STRATEGIK BOSHQARISHDA IJTIMOY-
DEMOGRAFIK OMILLARNING O'RNI: O'ZBEKISTONNING 2021–2025
YILLAR TAJRIBASI**

Ibragimov Abdimalik Gapparovich

*Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti Ta'lim sifatini
ta'minlash va akkreditatsiya bo'limi boshlig'i, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent*

Mirzadjanov Azim Hakimjanovich

*O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi Mehnat va ijtimoiy munosabatlar
akademiyasi Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektori*

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda 2025–2026 yillarda kuzatilgan ijtimoiy-demografik o'zgarishlarning ta'lim tizimini strategik boshqarishga ta'siri ilmiy-nazariy va tahliliy jihatdan o'rganilgan. Aholi sonining o'sishi, yosh tarkibi, urbanizatsiya jarayonlari, ichki migratsiya, hududlar o'rtasidagi demografik tafovutlar, oilalarning ijtimoiy-iqtisodiy holati hamda mehnat bozoridagi tarkibiy o'zgarishlarning ta'lim xizmatlariga bo'lgan talabni shakllantirishdagi o'rni asoslangan. Demografik o'sish natijasida maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim muassasalari quvvatiga, pedagog kadrlar ta'minotiga, ta'lim infratuzilmasi va moliyaviy resurslarga tushayotgan bosim tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ta'lim tizimi, strategik boshqaruv, ijtimoiy-demografik omillar, demografik o'sish, aholi tarkibi, urbanizatsiya, migratsiya, ta'lim infratuzilmasi, pedagog kadrlar, ta'lim sifati, demografik prognoz, ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv, raqamli monitoring, inson kapitali, hududiy rejalashtirish.

O'zbekiston Respublikasida aholi sonining barqaror o'sishi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim omillardan biri hisoblanadi. Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2025 yil 1 yanvar holatiga doimiy aholi soni 37,54 million nafarni, 2026 yil 1 yanvar holatiga esa 38,24 million nafarni tashkil etdi. 2026 yil 1 iyun holatiga kelib aholi soni 39 million nafardan oshdi. Bu aholi o'sish sur'atining barqaror saqlanayotganini va mamlakatda demografik o'sish yuqori darajada davom etayotganini ko'rsatadi.

Aholi sonining bunday o'sishi ta'lim tizimi oldiga uzoq muddatli strategik vazifalarni qo'yadi. Jumladan, har yili ta'lim muassasalariga qabul qilinadigan bolalar sonining ortishi yangi maktablar qurish, sinfxonalar sonini ko'paytirish, zamonaviy o'quv laboratoriyalari tashkil etish, raqamli ta'lim muhitini rivojlantirish hamda pedagog kadrlar tayyorlash hajmini qayta ko'rib chiqishni talab etadi. Shuning uchun ta'lim siyosati mavjud kontingentga emas, balki kamida 5–10 yillik demografik prognozlar asosida shakllantirilishi maqsadga muvofiq.

So'nggi yillarda mamlakatimizda tug'ilish darajasi yuqori saqlanib qolmoqda. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra:

2021 yil – 905 ming nafar;

2022 yil – 932 ming nafar;

2023 yil – 962 ming nafar;

2024 yil – 926,4 ming nafar tirik tug‘ilish qayd etilgan.

2025 yilda O‘zbekistonda tug‘ilish darajasi oxirgi yillardagi eng past ko‘rsatkichlarni qayd etib, pandemiyadan beri ilk bor 900 mingtadan kamaydi. Xususan, mamlakat bo‘yicha 2025 yilda jami 879 599 ta tirik tug‘ilish holati ro‘yxatga olingan, bu avvalgi yillarga nisbatan qisqarish tendensiyasini ko‘rsatadi.

Hududlar kesimida tug‘ilishlar soni: Eng ko‘p chaqaloqlar Samarqand (106266 ta), Qashqadaryo (99656 ta) va Farg‘ona (98319 ta) viloyatlarida dunyoga kelgan. Qolgan hududlarda tug‘ilishlar soni Surxondaryoda 81885 ta, Andijonda 79672 ta, Namanganda 75689 ta, Toshkent viloyatida 64245 ta, Toshkent shahrida 62318 ta, Xorazmda 46056 ta, Buxoroda 43654 ta, Qoraqalpog‘istonda 39277 ta, Jizzaxda 37393 ta, Navoiyda 24127 ta va Sirdaryoda 21042 tani tashkil etdi.

Bu ko‘rsatkichlar tug‘ilish darajasida kichik tebranishlar kuzatilgan bo‘lsa-da, uning mutlaq hajmi hanuz juda yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Demografik nuqtai nazardan bu holat 2027–2031 yillarda maktabgacha ta‘lim muassasalariga, 2029–2033 yillarda esa umumta‘lim maktablarining birinchi sinflariga qabul qilinadigan bolalar soni yanada ortishini anglatadi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, tug‘ilish statistikasi ta‘lim tizimi uchun eng muhim prognoz ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Uning asosida ta‘lim muassasalari tarmog‘ini kengaytirish, budjet mablag‘larini taqsimlash va pedagog kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni rejalashtirish mumkin.

Maktabgacha ta‘lim tizimida ham so‘nggi yillarda sezilarli o‘sish kuzatilmoqda. 2025-yil yakuniga ko‘ra O‘zbekistonda jami 38058 ta maktabgacha ta‘lim tashkiloti faoliyat yuritgan. Shundan 28729 tasi oilaviy nodavlat bog‘chalar hisoblanadi. 3–6 yoshli bolalarni maktabgacha ta‘lim bilan qamrab olish darajasi 69 foizni tashkil etdi:

- Jami bog‘chalar soni: 38 058 ta
- Oilaviy nodavlat bog‘chalar: 28 729 ta
- 3–6 yoshli bolalar qamrovi: 69%
- Boshlang‘ich ta‘limga bir yil qolgan 6 yoshli bolalar qamrovi: 84%

Biroq demografik prognozlar kelgusi yillarda mazkur yosh toifasidagi bolalar soni yana ortishini ko‘rsatmoqda. Shu sababli:

davlat-xususiy sheriklik asosida yangi bog‘chalar tashkil etish;

mavjud muassasalar quvvatini oshirish;

tarbiyachilar malakasini rivojlantirish;

raqamli boshqaruv tizimlarini joriy qilish

maktabgacha ta‘lim siyosatining ustuvor vazifalaridan biri bo‘lib qoladi.

O‘zbekiston aholisi tarkibida bolalar va yoshlar ulushining yuqoriligi mamlakatning asosiy demografik ustunliklaridan biri hisoblanadi. Mavjud ma‘lumotlarga ko‘ra, maktab

yoshidagi aholi soni 6,6 million nafarga yaqin bo‘lib, ularning qariyb 3,2 millioni qizlar, 3,4 millioni o‘g‘il bolalar hisobiga to‘g‘ri keladi.

BMTning demografik prognozlariga muvofiq, 2035 yilga borib 7–17 yoshli bolalar soni 9,7 million nafarga yetishi mumkin. Bu esa mamlakatda qo‘shimcha maktab binolari, sinfxonalar va pedagog kadrlarga bo‘lgan talab yanada ortishini anglatadi.

Shu sababli maktab yoshidagi aholi to‘g‘risidagi ma’lumotlar hududiy kesimda muntazam monitoring qilinishi, ular asosida ta’lim infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha strategik qarorlar qabul qilinishi lozim.

2025/2026 o‘quv yili boshida respublikada 10 943 ta umumta’lim maktabi faoliyat yuritgan. Ularda tahsil olayotgan o‘quvchilar soni 6,7 million nafardan ziyod bo‘lib, bu maktablar tarmog‘iga tushayotgan demografik bosim yuqori ekanligini ko‘rsatadi.

Har yili birinchi sinfga qabul qilinayotgan o‘quvchilar sonining ortishi natijasida ayrim hududlarda ikki va uch smenali ta’lim saqlanib qolmoqda. Shuning uchun umumta’lim muassasalari qurilishini aholi soni bo‘yicha emas, balki tug‘ilish dinamikasi, ichki migratsiya, yangi turar-joy massivlari va maktab yoshidagi aholi prognozi asosida rejalashtirish muhim ahamiyatga ega.

2022/2023 o‘quv yilida umumta’lim maktablarida 540,7 ming nafar pedagog faoliyat yuritgan bo‘lib, har bir o‘qituvchi hisobiga o‘rtacha 11,9 nafar o‘quvchi to‘g‘ri kelgan.

Demografik prognozlarga ko‘ra, 2035 yilgacha pedagog kadrlarga bo‘lgan ehtiyoj yanada ortadi. Shu munosabat bilan:

pedagogika OTMlarida qabul parametrlarini demografik prognozlar bilan uyg‘unlashtirish;

STEM, chet tillari va raqamli texnologiyalar bo‘yicha kadrlar tayyorlashni kuchaytirish;

pedagoglarning hududiy taqsimotini takomillashtirish;

uzluksiz malaka oshirish tizimini rivojlantirish

ta’lim menejmentining ustuvor vazifasiga aylanadi.

Ijtimoiy-demografik jarayonlar ta’lim xizmatlariga bo‘lgan talabning asosiy drayverlaridan biri hisoblanadi. Aholi sonining o‘sishi, yuqori tug‘ilish darajasi va yoshlar ulushining kattaligi natijasida mamlakatda:

maktabgacha ta’lim xizmatlariga;

umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga;

pedagog kadrlarga;

raqamli ta’lim texnologiyalariga;

inklyuziv ta’lim xizmatlariga;

qo‘shimcha ta’lim va kasbiy tayyorgarlik xizmatlariga bo‘lgan ehtiyoj yil sayin oshib bormoqda.

Shuning uchun zamonaviy ta’lim menejmentida demografik ma’lumotlardan faqat statistik axborot sifatida emas, balki Data-driven Management tamoyili asosida strategik qarorlar qabul qilishning muhim instrumenti sifatida foydalanish talab etiladi. Bu esa aholi prognozlari, tug‘ilish dinamikasi, migratsiya jarayonlari va hududiy rivojlanish

tendensiyalarini yagona raqamli monitoring tizimiga integratsiya qilish, ta’lim muassasalari tarmog’ini optimal rejalashtirish hamda inson kapitalini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Quyidagi jadvalda O‘zbekiston bo‘yicha 2022–2026 yillarga oid asosiy ijtimoiy-demografik va ta’lim ko‘rsatkichlari rasmiy ma’lumotlar hamda 2026 yil uchun mavjud rasmiy hisobotlar asosida (yil boshi holati) jamlandi. Pedagoglar soni bo‘yicha 2025–2026 yil uchun yagona rasmiy yillik ko‘rsatkich hali e’lon qilinmagani sababli oxirgi rasmiy ma’lumot keltirildi.

1-jadval

O‘zbekistonda 2022–2026 yillarga oid asosiy ijtimoiy-demografik va ta’lim ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	2022 yil	2023 yil	2024 yil	2025 yil	2026 yil*
Doimiy aholi soni (mln nafar)	36,02	36,80	37,54	38,24	39,0
(1 iyun holati)					
Tirik tug‘ilganlar (ming nafar)	932,2	962,0	926,4	879,6	191,1 (I chorak)
Maktab yoshidagi aholi (7–17 yosh, mln nafar)		6,30	6,45	6,60	6,75 6,90
Umumta’lim maktablari (ta)	10 181	10 750	10 943	11 050	11 120 (baholash)
Maktabgacha ta’lim tashkilotlari (ta)			34 500	36 800	38 058 38 500
Pedagoglar soni (ming nafar)	540,7	550,3	562,0	570,0 (baholash)	578,0 (baholash)
Umumta’lim o‘quvchilari (mln nafar)	6,45	6,60	6,78	6,90	7,00 (baholash)

O‘zbekistonda aholi soni va ta’lim xizmatlariga bo‘lgan talab dinamikasi o‘rganildi. O‘rganish natijalariga ko‘ra, quyidagi dinamikada 2022 yil bazaviy yil – 100 foiz deb olindi. Ta’lim xizmatlariga talabning asosiy indikatori sifatida umumiy o‘rta ta’limdagi o‘quvchilar kontingenti qabul qilindi. Bu usul aholi va ta’limga talab ko‘rsatkichlarining o‘lchov birliklari turlicha bo‘lgan sharoitda ularning o‘sish sur’atini qiyosiy baholash imkonini beradi.

2024/2025 o‘quv yilida O‘zbekistonda 10 943 ta umumta’lim maktabi faoliyat yuritgan va ularda qariyb 6,78 million nafar o‘quvchi tahsil olgan. Aholi soni esa 2022 yildagi 36,02 million nafardan 2025 yilda 38,24 million nafargacha o‘sgan.

2-jadval

O‘zbekistonda aholi soni va ta’lim xizmatlariga talab dinamikasi

Yil	Aholi soni, mln nafar		Umumta’lim	
	o‘quvchilari, mln nafar		Aholi indeksi, %	Ta’limga talab indeksi, %
2022	36,02	6,46	100,0	100,0
2023	36,80	6,60	102,2	102,1
2024	37,54	6,78	104,2	104,9
2025	38,24	6,90*	106,1	106,8
2026	39,00*		7,00*	108,3

Ijtimoiy-demografik omillar asosida ta’lim tizimini strategik boshqarish modeli

1-jadval ma’lumotlariga ko‘ra, aholi soni va ta’lim xizmatlariga talabning deyarli bir xil sur’atda oshib borayotganini ko‘rsatadi. 2022–2026 yillar davomida aholi soni taxminan 8,3 foizga, umumta’lim xizmatlariga talab esa 8,3 foizga oshishi kutilmoqda. Bu holat maktablar sonini ko‘paytirish bilan cheklanmasdan, sinfxonalar quvvati, pedagog kadrlar, darsliklar, raqamli resurslar va budjet mablag‘larini ham mutanosib ravishda oshirish zarurligini anglatadi.

Shuningdek, ta’lim xizmatlariga talab aholi o‘ssishi bilan bir vaqtda emas, balki muayyan vaqt kechikishi bilan shakllanadi. Tug‘ilishning ortishi 3–6 yildan keyin maktabgacha ta’limda, taxminan 7 yildan keyin umumta’lim maktablarining birinchi sinflarida namoyon bo‘ladi. Shu sababli ta’lim infratuzilmasini rejalashtirishda joriy o‘quvchilar soni bilan birga tug‘ilish, migratsiya va yangi turar joy massivlari bo‘yicha kamida 5–10 yillik prognozlardan foydalanish zarur.

O‘zbekistonda oliy ta’li tashkilotlari soni hamda aholisining oliy ta’lim xizmatlariga bo‘lgan talabi taxlil qilindi, unga ko‘ra, O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimi so‘nggi yillarda mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining strategik ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida jadal rivojlanmoqda. Demografik o‘ssish, mehnat bozorida yuqori malakali kadrlarga bo‘lgan ehtiyoj, iqtisodiyotning raqamlashuvi va yoshlarning oliy ma’lumot olishga intilishi oliy ta’lim xizmatlariga bo‘lgan talabning keskin ortishiga olib keldi. Shu munosabat bilan davlat tomonidan davlat, nodavlat va xorijiy oliy ta’lim tashkilotlari tarmog‘ini kengaytirish, ta’lim shakllarini diversifikatsiya qilish hamda qamrov darajasini oshirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi.

2024/2025 o‘quv yili boshida respublikada 222 ta oliy ta’lim tashkiloti (filiallar bilan birga) faoliyat yuritgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich 2020/2021 o‘quv yiliga nisbatan qariyb 75 foizga oshgan. 2025/2026 o‘quv yili boshida esa tizim optimallashtirilishi natijasida oliy ta’lim tashkilotlari soni 215 tani tashkil etgan. Shundan 97 tasi nodavlat, qolgan qismi davlat va xorijiy universitetlar hamda ularning filiallaridan iborat.

Oliy ta’lim muassasalari sonining ko‘payishi aholi ehtiyojining ortishi bilan bevosita bog‘liq. So‘nggi yillarda mamlakat aholisi 39 million nafarga yaqinlashdi, aholi tarkibida yoshlar ulushi yuqori bo‘lib qolmoqda. Bu esa har yili mehnat bozoriga kirib kelayotgan yoshlar soni ortishi va ularning oliy ta’limga bo‘lgan ehtiyojini kuchaytirmoqda. Shu nuqtai

nazardan, oliy ta’lim tashkilotlari tarmog’ini kengaytirish demografik bosimga nisbatan qabul qilingan strategik boshqaruv qarori sifatida baholanadi.

Oliy ta’lim xizmatlariga bo’lgan talabning o’sishi talabalar kontingentida ham yaqqol namoyon bo’lmoqda. 2025/2026 o’quv yili boshida respublikadagi oliy ta’lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalar soni 1 million 535 ming nafarga yetgan. Bu 2024/2025 o’quv yiliga nisbatan 102,2 ming nafarga yoki 7,1 foizga ko’pdir. Talabalarning 782,9 ming nafari ayollar, 752,1 ming nafari erkaklar hissasiga to’g’ri keladi.

Hukumat ma’lumotlariga ko’ra, oliy ta’lim bilan qamrov darajasi 44 foizdan oshgan, talabalar umumiy soni esa so’nggi yillarda bir necha barobar ko’paygan. Bu natijalar yangi universitetlar tashkil etish, nodavlat sektorni qo’llab-quvvatlash, masofaviy va kechki ta’lim shakllarini kengaytirish hamda ta’lim dasturlarini diversifikatsiya qilish orqali ta’minlangan.

Tahlillar shuni ko’rsatadiki, aholining oliy ta’lim xizmatlariga bo’lgan talabi quyidagi omillar ta’sirida shakllanmoqda:

mamlakat aholisi va yoshlar sonining barqaror o’sishi;

iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasi natijasida yuqori malakali kadrlarga ehtiyojning ortishi;

davlat tomonidan oliy ta’lim qamrovini kengaytirish siyosati;

nodavlat va xorijiy universitetlar faoliyatining rivojlanishi;

mehnat bozorida oliy ma’lumotli mutaxassislariga nisbatan raqobatning kuchayishi;

aholi daromadlari va ta’lim investitsiyalariga munosabatning o’zgarishi.

Shu bilan birga, mavjud o’sish sifat jihatidan yangi vazifalarni ham yuzaga keltirmoqda. Universitetlar sonining ko’payishi ta’lim sifati, professor-o’qituvchilar salohiyati, ilmiy tadqiqotlar, moddiy-texnika bazasi, raqamli infratuzilma va xalqaro raqobatbardoshlikni mutanosib ravishda rivojlantirishni talab etadi. Endi asosiy vazifa faqat yangi universitetlar ochish emas, balki ularning ta’lim sifati, bitiruvchilar bandligi va mehnat bozori talablariga mosligini ta’minlashdan iborat.

Xulosa qilib aytganda, demografik tahlillar O’zbekistonda oliy ta’lim xizmatlariga bo’lgan talab kelgusi 10–15 yil davomida ham yuqori bo’lib qolishini ko’rsatmoqda. Shu munosabat bilan quyidagi ustuvor yo’nalishlarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq:

Demografik prognozlashni ta’lim rejalashtirishiga integratsiya qilish.

Maktabgacha ta’lim, maktab ta’limi, o’rta maxsus ta’limi, oliy ta’lim, oliy ta’limdan keyingi ta’lim: doktorantura, kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshiri yo’nalishlarida pedagog kadrlarga ehtiyojni hududiy prognoz asosida belgilash.

Ta’lim menejmenti va raqamli boshqaruv bo’yicha strategik takliflar takliflar tayyorlash.

Oliy ta’lim tashkilotlari tarmog’ini demografik prognozlar asosida hududiy rivojlantirish.

Davlat buyurtmasi va qabul parametrlarini mehnat bozori ehtiyojlari hamda aholi prognozlari bilan uyg’unlashtirish.

Nodavlat va xorijiy universitetlar faoliyatida ta’lim sifati monitoringini kuchaytirish.

Masofaviy, kechki va gibril ta’lim shakllarini kengaytirish orqali aholining turli qatlamlari uchun oliy ta’lim imkoniyatlarini oshirish.

Oliy ta’limni Data-driven Management tamoyili asosida boshqarib, demografik ma’lumotlar, qabul ko’rsatkichlari, talabalar kontingenti va bitiruvchilar bandligini yagona raqamli analitik tizim orqali monitoring qilish.

Ushbu yondashuv mamlakatda inson kapitalini rivojlantirish, ta’lim sifatini oshirish va oliy ta’lim tizimining barqaror rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni 23.09.2020 y. N O‘RQ-637, Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz), 2020 yil 24 sentabr, “Xalq so‘zi”, 2020 yil 24 sentabr, “O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami”, 2020 yil 28 sentabr, 37-38-son, 419-modda.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.04.2019 yildagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.10.2019 yildagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026 yillarda Oliy ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2022 yil 11 maydagi PF-134-son Farmoni.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi 2023 yil 28 fevraldagi PF-27-son Farmoni.
8. Sh.Po‘latov. Ta’lim menejmenti, yoxud ta’lim muassasasini ilmiy-metodik boshqarish strategiyasi. O‘quv qo‘llanma. T.: “Yosh kuch”, 2019, 592 bet
9. R.X.Djuraev, S.T.Turg‘unov. Ta’lim menejmenti. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, “Voriz-Nashriyot” – 2006.
10. Sh.Qurbonov, E.Seytxalilov. Ta’lim sifatini boshqarish. T.: “Turon-Iqbol”: 2006. – 592 bet
11. Shodiev X, Xabibullaev I. “Statistika” T. “Moliya-iqtisod” 2013.
12. A.Radjiev, F.Karimov, A.G.Ibragimov. TALIS-2018 xalqaro tadqiqotlari talablari asosida o‘tkazilgan so‘rovnoma va tadqiqot hisobotining ma’lumotlar to‘plami 1-2-to‘plamlar // A.Avloniy nomidagi xalq ta’limi muammolarini o‘rganish va istiqbollari belgilash ilmiy-tadqiqot instituti. – Toshkent, 2022 yil.
13. O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portali

14. www.uzedu.uz
15. www.stat.uz
16. <https://ru.wikipedia.org/wiki>
17. <https://www.statistics.com>